

BOQIRG'ONiy ASARLARINING NASHR BO'LISHI TARIXI

Fayziyeva Dilorom Shabonovna

TOSHDO'TAU 3-kurs tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17167322>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sulaymon Boqirg'oniy asarlarining nashr tarixi, qo'lyozmalardan bosma kitoblarga o'tish jarayoni va ilmiy matnshunoslik jihatlari yoritilgan. Asarlarning turli davrlarda chop etilishi va ularning ilmiy izlanishlardagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sulaymon Boqirg'oniy, qo'lyozma, matnshunoslik, nashr tarixi, ilmiy tadqiqotlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается история публикации произведений Сулеймана Бакыргани, переход от рукописных источников к печатным изданиям и филологические аспекты текстологии. Анализируется издание произведений в разные эпохи и их роль в научных исследованиях.

Ключевые слова: Сулейман Бакыргани, рукопись, текстология, история публикаций, научные исследования.

Abstract. This article explores the publication history of Sulaymon Boqirg'oniy's works, highlighting the transition from manuscripts to printed editions and the philological aspects of textual studies. The significance of these publications in various historical contexts and academic research is analyzed.

Keywords: Sulaymon Boqirg'oniy, manuscript, textual criticism, publication history, scholarly research.

Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim Ota) tasavvuf adabiyotining yirik vakili sifatida o'z davrida keng ijod qilgan va uning asarlari turli hududlarda qo'lyozma shaklida tarqalgan. Matnshunoslik nuqtayi nazaridan ushbu asarlarning nashr tarixi ilmiy jihatdan muhim bo'lib, ular orqali nafaqat adabiy, balki diniy-ma'naviy meros ham tadqiq etiladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Istanbul, Qozon va Toshkentda uning "Hikmatlar"i ilk bor bosma kitob sifatida chop etilgan. Keyinchalik Sovet davrida qisman taqiqlangan bo'lsa-da, mustaqillik yillarida yangi ilmiy nashrlar yuzaga keldi.

Professor Abdurauf Fitrat: «Qo'limizda bo'lgon «Tazkiratul — avliyolarning hech biri Ahmad Yassaviyning» hikmatlaridan xabar bermagani holda, hammalari hakim Sulaymon otaning ko'p «hikmat»lari borlig'ini bir og'izdan aytib turadilar», deydi. Sulaymon Boqirg'oniy turkiy she'riyatning boshlovchilaridandir. She'rlari tatar, boshqird va boshqa turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, «Boqirg'oniy kitobi» 19-20-asr boshlarida Qozonda 3 marta nashr etilgan. Turk olimi Muhammad Fuod Kuprulizoda yuqorida ta'kidlaganidek, «Oxir zamon kitobi» va «Bibi Maryam kitobi» O'rta Osiyoda, shuningdek, Idil atroflarida diqqat va harorat bilan o'qilgan asarlardandir».

Sulaymon Boqirg'oniy lirik she'rlar, hikmatlar yozish barobarida epik asarlar: "Ismoil alayhissalom qissasi", "Me'rojnoma", "Bibi Maryam", "Imom A'zam (Sobit qissasi" deb ham yuritilgan) kabi dostonlar ham yozib, o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shdi. Navoiyshunos olim A. Hayitmetov ta'kidlaganidek, Boqirg'oniy ustoz Yassaviydan farqli o'laroq, o'zbek she'riyatini yangi janrlar, xususan, epik she'riyat bilan to'ldirgan va kengaytirgan. Binobarin, u she'riyatda hikoya uslubida, qissachilik shaklida ham dadil qalam tebratgan. Bunga uning

“O‘rtanayin, xush tinglangiz , ayo do‘stlar...” deb boshlangan voqe‘aband she‘riy asari misol bo‘ladi”. “... Boqirg‘oniyning “Ismoil qissasi”, “Me‘rojnoma”, “Bibi Maryam”, “Sobit qissasi”, (“Numon qissasi”). “Oxir zamon qissasi” manzumalarini ham kichik dostonlari sirasiga kiritish mumkin.” “...Sulaymon Boqirg‘oniy dostonlarni biz bugun faqat XII–XIII asr o‘zbek adabiyoti kontekstidagina emas, umuminsoniy qadriyatlar olami maydonida o‘qishimiz va talqin etishimiz kerak”.

Mazkur dostonlar, diniy syujetlar asosida yozilgan bo‘lib, qadim turkiy she‘riyat an‘analarining barcha xususiyatlarini o‘zida mujassam etganligi bilan e‘tiborga loyiq. Chunki dostonlar, asosan, turkiy she‘riyatning barmoq vaznidagi to‘rtliklar shaklida hamda til va uslub jihatidan xalqchil ohangda yozilgan. Jumladan “Me‘rojnoma”da Muhammad alayhissalom payg‘ambarimizning me‘rojga chiqish voqeasi, “Ismoil qissasi”da Ibrohim alayhissalomning o‘g‘li Ismoil payg‘ambarni qurbonlik qilish bilan bog‘liq voqealar, “Oxir zamon” qissasida oxir zamonda bo‘ladigan turli alomatlar va fitnalardan xabar berilgan bo‘lsa, “Sobit qissasi”, (bu “Numon qissasi” ham deb yuritiladi) bunda Imom A‘zam – Abuhanifaning otasi No‘mon ibn Sobitning uylanish voqesi, Imom A‘zamning tug‘ilishi va ilmda mashhur bo‘lishi bilan bog‘liq voqealar yoritilgan. Ilmiy manbalarda Boqirg‘on kitobining O‘zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Istanbul va Rossiya kabi davlatlarda qo‘lyozma nusxalari mavjudligi qayd etilgan. Manbashunos olim M. Eshmuhammedova “Sulaymon Boqirg‘oniy” nomli maqolasida Yurtimizdagi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar bo‘limida Boqirg‘oniy hikmatlari joy olgan o‘nlab qo‘lyozmalarining raqamini keltiradi. Bu qo‘lyozmalar turli yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, ularda Yassaviy va uning izdoshlari hikmatlari qayd etilganligi, alohida Boqirg‘oniy hikmatlari jamlanib, ko‘chirilgan mukammal qo‘lyozmaning mavjud emasligini ta‘kidlab o‘tilgan. Mazkur qo‘lyozmalar qatorida 1330/1911 yilda Jo‘yboriyzoda degan kishi tomonidan ko‘chirilgan 2069/V raqamli qo‘lyozmaning 79 - 100 sahifalarida Hakim ota manqibi ham joy olgan.

Yurtimizda ilk bor Sulaymon Boqirg‘oniyning “Boqirg‘on kitobi” 1991-yil adabiyotshunoslar I.Haqulov va S.Rafiddinovlar tomonidan chop etildi. Shuningdek, 2011-yil Toji Qoraev va Abul Bozorovlar tomonidan Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg‘oniyning hikmatlar kulliyoti nashr bo‘ldi. Bundan tashqari Turkiya, Turkmaniston va Qozoqiston kabi turkiyzabon mamlakatlarda ham uning hikmatlari qayta-qayta nashr etildi. Sulaymon Boqirg‘oniy hayoti va ijodi keng yoritilgan kitoblardan biri A. Ziyoyevning o‘zbek tilida, Qozog‘istonning Jambul shahrida 2022- yil nashr bo‘lgan “Qarnoqlik avliyo” kitobi bo‘lsa, yana biri, Umrboy Embergenov va Jabborbergan Shomurodovning “Sulaymon Boqirg‘oniy” (Hakim ota) kitobi (Toshkent “O‘zbekiston” 2015) Har ikkala manba o‘zining ma‘lumotlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Boqirg‘oniy asarlarining tili qadimgi Turkiston hozirgi O‘rta Osiyo turkiylariga xos bo‘lgan XI-XII asr tilidir. Mashhur mutasavvif hikmatlarini o‘qisangiz ba‘zi arabiy va forsiy so‘zlar hamda tasavvufiy atamalardan tashqari qadimgi turk tiliga xos bo‘lgan bir qator so‘z, atama va lahjalar qo‘llanganiga guvoh bo‘lasiz. Zero, hikmatlar tili tilshunos va lug‘atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan. Bu borada fikr va mulohazalar ham bildirilgan. Olimlarning fikriga ko‘ra Boqirg‘on asarlarining tili bugungacha bizga yetib kelgan va u Yassaviynikidan qadimiyoq. Unda qadim turkiy til namunalari ko‘p uchraydi: **o‘gush, nang, qamug‘, qapu, teyu,**

kirpich, o'g'rabon, bango, yozug', usanmoq, tabo, bo'ryo, O'g'onim soqinmoq va hokaz kabilar. Shu ma'noda Boqirg'on hikmatlari nafaqat yozma she'riyatimiz balki, tilimiz va lug'atchiligimizning rivoji uchun ham e'tiborli manbalardan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, Sulaymon Boqirg'oniy asarlarining nashr tarixi o'zbek adabiy merosining boyligini ko'rsatadi. Qo'lyozma nusxalardan bosma nashrlarga o'tish jarayoni matnshunoslik uchun qimmatli tajriba bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqot kelgusida ilmiy nashrlarni yanada mukammal qilish va qo'lyozmalarning ilmiy tavsifini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ertayev A. *Hakim ota hikmatlari*. Toshkent: Fan, 1971.
2. Hayitmetov A. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: Universitet, 1994.
3. Usmonov O. *Tasavvuf va adabiyot*. Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
4. Boqirg'oniy S. *Hikmatlar*. Toshkent: Yozuvchi, 1992.
5. Suyunov Q. *O'zbek matnshunosligi masalalari*. Toshkent: Universitet, 2010.